



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-aprel

264-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

Parkent tumani hududidagi bo'sh turgan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiyl mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 198-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, Parkent tumani hokimligining 2025-yil 9-apreldagi 1/65-sonli xatini hamda yerdan foydalanuvchilarning yer maydonlarini davlat zaxiraga qaytarish to'g'risidagi notarial tasdiqlangan arizalarini o'rganib chiqib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6, 10-moddalariga asosan **qaror qilaman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi 198-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, Parkent tumani hokimligining 2025-yil 9-apreldagi 1/65-sonli xati hamda yerdan foydalanuvchilarning yer maydonlarini davlat zaxiraga qaytarish to'g'risidagi notarial tasdiqlangan arizalari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. "ISKANDAR PLYUS SANJAR" fermer xo'jaligi rahbari Umarov Iskandar Ruslanovichning 2025-yil 9-apreldagi 202501878001325-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to'g'risidagi notarial tasdiqlangan arizasiga asosan Parkent tumanining "Gulbog'" massivi hududidagi 363, 361-konturlardagi 8,59 gektar;

fuqaro Sottiyeva Adolat Mirmali qizining 2025-yil 6-martdagi 20250187800918-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to'g'risidagi notarial tasdiqlangan arizasiga asosan "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi" DUKning 2022-yil 3-iyundagi YU 022-442121-sonli elektron onlayn auksion natijalari to'g'risidagi bayonnomaga asosan Parkent tumani Chotqol mahalla hududidagi 1,0 gektar (unikal raqami Y17217249-03088/085), jami 2 ta yerdan foydalanuvchidan 9,59

gektar yer maydoni Parkent tumani davlat zaxira yerlari tarkibiga qaytarilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydoni bo'sh turgan yer maydoni hisoblanishini inobatga olib davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilsin.

3. Parkent tumani hokimligi (S. Isakulov) qarorda keltirilgan jami 9,59 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish maqsadida belgilangan tartibda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtma bersin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J. Axrorov) tuman hokimligining buyurtmasiga asosan bo'sh turgan 9,59 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazsin hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimi o'rinbosari Sh. Mahmudov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev